

“YANGI O‘ZBEKISTON BARPO ETISHDA JADIDLAR G‘OYALARINING O‘RNI”

MAVZUSIDA RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMANI

PRESS – RELIZI



25-26-APREL

TOSHKENT – 2025

**“YANGI O‘ZBEKISTON BARPO ETISHDA JADIDLAR
G‘OYALARINING O‘RNI”
MAVZUSIDA RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMANI
PRESS – RELIZ**

“Profi University” da 2025-yilning 25-26-aprel kunlari o‘tkaziladigan “Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

Ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi uchun asos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar. Anjumanning tashkil etilishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida” ijrosini ta‘minlash maqsadida 2025-yil 25-26 aprel kunlari “Yangi O‘zbekiston barpo etishda jadidlar g‘oyalarining o‘rni” mavzusida Respublika miqyosida tashkil etilayotgan mazkur anjuman me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi.

Anjumanning ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifasi.

Anjumanning asosiy maqsadi – shundaki, jadid ma‘rifatparvarlarining ilmiy va ijodiy merosini o‘rganish, ularning ilmiy g‘oyalari va qadriyatlarining hozirgi zamon yoshlar shaxsiyatini shakllantirishdagi ahamiyatini ifoda etishga qaratilgan.

Anjuman vazifalari:

Mamlakatimizda “Profi University” nodavlat oliy ta‘lim muassasasi o‘z o‘rni va mavqeiga ega. Universitetning asosiy maqsadi — ta‘lim orqali tanqidiy fikrlay oladigan, o‘z bilimi va salohiyati bilan jamiyatga hissa qo‘shadigan kadrlarni tayyorlashdir. Universitet “Iqtisodiyot”, “Aniq fanlar”, “Pedagogika”, kabi

yo‘nalishlarida yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlab berishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Anjuman jadid ma‘rifatparvarlarning Vatanimiz va jahon tarixida tutgan o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqloqlarning ma‘naviy asoslarini shakllantirishdagi xizmatlarini, ibratli hayoti va boy ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, targ‘ib qilish hamda xotiralarini abadiylashtirish ishlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida taklif etilgan tashabbuslarni hayotga tatbiq etish, iqtidorli yoshlarning innovatsion g‘oyalari va ishlanmalarining ilmiy asoslariga qaratiladi.

Yangi O‘zbekiston barpo etishda uyg‘oq qalbli ziyolilarni tarbiyalash jarayonida duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklarni ilmiy asosda aniqlash, jadidlar g‘oyalarining o‘rni ochib berish va amaliy takliflar muhokamasidan iborat.

Muhokama qilinadigan muammo. Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 24-martdagi “2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida”gi 76-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida tashkil etilayotgan mazkur anjumanda maktabgacha va boshlang‘ich talim sifat va samadorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari; bo‘ljak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion hamda psixologik yondashuvlar; tillarni o‘qitishda innovatsion metodikalarning ahamiyati; aniq va ijtimoiy fanlarning pedagog kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolariga oid masalalar muhokama qilinadi.

O‘tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlar bilan bog‘liqligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlar asosida, iqtidorli yoshlar

ishtirokidagi Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan loyihalar hamda xalqaro ilmiy loyihalar bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etildi.

Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.

Anjumanda jadid ma’rifatparvarlarning Vatanimiz va jahon tarixida tutgan o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqloqlarning ma’naviy asoslarini shakllantirishdagi xizmatlarini, ibratli hayoti va boy ilmiy-ijodiy merosini o‘rganish, respublikamizdagi yoshlarni jahon ilm-fan yutuqlariga ega va shu bilan birga ma’rifatparvar bobolarining g‘oyalarini bilgan va rivojlantiradigan yetuk kadrlarni tayyorlash muammolari va yechimlari bo‘yicha ilmiy-amaliy asoslar muhokamasi, o‘zaro fikr almashish natijasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishda uyg‘oq qalbli ziyolilarni tarbiyalash imkonini beradigan ilmiy xulosa va tavsiyalar tayyorlanadi. Shuningdek, anjumanda ishtirok etgan ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va mutaxassislar o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatiladi.

1-sho‘ba. Jadidlar ilmiy merosini maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda tatbiq etish masalalari.

2-sho‘ba. Jadidlarning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish masalalari.

3-sho‘ba. Jadidchilik g‘oyalarini ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganilishi.

4-sho‘ba. Jadidlar iqtisodiy va falsafiy g‘oyalarining zamonaviy jamiyat rivojlanishiga ta’siri.

5-sho‘ba. Jadidchilikda til va adabiyot masalasi kabi dolzarb muammolariga oid tashkiliy, ilmiy-nazariy va metodologik masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Ilmiy-texnik anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, katta ilmiy izlanuvchilar va magistrantlarning ishtirok etishi. Anjumanda ta’lim sohasiga oid mahalliy tashkilotlar xodimlari, maktabgacha, umumiy o‘rta, oliy va professional ta’lim, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi pedagoglari, xodimlari, tinglovchilar, tadqiqotchilar, talabalar va magistrantlar ishtirok etadilar.

Anjuman o‘tkazishda xalqaro va respublikada mavjud soha, tashkilotlarning ishtirok etishi.

Anjumanda sanoat va ishlab chiqarish tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari va boshqa OO‘YU yetuk olimlari, professor-o‘qituvchilari va iqtidorli yoshlari hamda ilmiy tekshirish institut va markazlari yosh tadqiqotchilarining ishtirok etishlari rejalashtirilgan.